

## QADIMGI JANUBI-SHARQIY OSIYO XALQLARINING DINIY E'TIQODLARI XUSUSIDA

Yarashev Sanjarbek

IV kurs talaba.

Oybek Iskandarovich Rajabov

BuxDU Arxeologiya va Buxoro tarixi kafedrasi katta o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15364628>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Qadimgi Janubi-Sharqi Osiyo hududida yashagan xalqlarning ibtidoiy diniy qarashlari hamda o'rta asrlarda vujudga kelgan e'tiqodiy qarashlari haqida ma'lumotlar ilmiy manbalar asosida atroflicha tadqiq etilgan. Mintaqada barcha dunyoviy diniy e'tiqodlarning mavjudligini ta'kidlash mumkin.

**Kalit so'zlar:** Qadimgi Janubi-Sharqi Osiyo, diniy e'tiqod, Hindi-xitoy yarim oroli, Malayya arxipelagi, Indoneziya, Vietnam, Birma, Kambodja.

## ДРЕВНИЕ НАРОДЫ ЮГО-ВОСТОЧНОЙ АЗИИ ОТНОСИТЕЛЬНО РЕЛИГИОЗНЫХ УБЕЖДЕНИЙ

**Annotatsiya.** В статье на основе научных источников дается комплексное исследование первобытных религиозных верований народов, населявших древнюю Юго-Восточную Азию, а также верований, возникших в Средние века. Можно отметить, что в регионе представлены все светские религиозные верования.

**Ключевые слова:** Древняя Юго-Восточная Азия, религиозные верования, полуостров Индокитай, Малайский архипелаг, Индонезия, Вьетнам, Бирма, Камбоджа.

## ON THE RELIGIOUS BELIEFS OF THE ANCIENT PEOPLES OF SOUTHEAST ASIA

**Abstract.** This article provides a comprehensive study of the primitive religious beliefs of the peoples living in the territory of Ancient Southeast Asia and the religious beliefs that emerged in the Middle Ages, based on scientific sources. It can be noted that all secular religious beliefs existed in the region.

**Keywords:** Ancient Southeast Asia, religious beliefs, Indochina Peninsula, Malay Archipelago, Indonesia, Vietnam, Burma, Cambodia.

**Kirish.** Yevrosiyo qit'asining janubi-sharqi qismidagi Hindi-xitoy yarim orolida va qo'shni Malayya arxipelagi orollarida o'ziga xos madaniyatga ega bo'lgan turli elatlar yashaydi.

Taxminan 4,6 mln. km<sup>2</sup> territoriyada hozirda bir necha yirik mustaqil davlatlar joylashgan.

Uning aholisi 324 milliondan ortiq. Eng katta yarim orol (jahonda maydoni jihatidan uchinchi o'rinda) hisoblangan Hindi – xitoydagi Vietnam (53 mln.), Laos (3,7 mln.), Kambodja Xalq Respublikasi (4,5 mln.), Birma (32,6 mln.) va Tayland qirolli (46 mln.) joylashgan. 15 mingdan ortiq orollardan tashkil topgan Malayya arxipelagida esa katta hududni egallagan Indoneziya (148 mln.) va Filippin (45 mln.) Respublikalari, Malayziya Federatsiyasi (13,5 mln.), Singapur Respublikasi (2,4 mln.) kabi davlatlar mavjud.

**Asosiy qism.** Vetlar qadimdan turli ibtidoiy e'tiqod shakllariga amal qilib, animizm, totemizm va shuningdek, o'tmish ajdodlar kultlariga sig'inganlar. Qolaversa, ularda "yer ruhlari, timsoh-ajdar va suv ustida suzuvchi qushlarga ham topinish odati bo'lgan". Miloddan avvalgi III-II asrlarda, Hindiston bilan bo'lgan aloqalar bois bu yerga buddizm kirib kelgan va milodning XII-XIII asrlariga borib keng tarqagan.

Xitoy madaniyatining Vietnamda yoyilishi ham aynan shu davrlarga to‘g‘ri keladi.

Mamlakatda Budda, Konfusiy va Lao ta’limotlari diniy e’tiqod maqomiga ko‘tarilgan vaqtida, mavjud markazlar muzofoti va tog‘lik yerlarda yashagan aholining o‘z ibtidoiy e’tiqodlarida qolganliklari inkor etilmaydi. Vietnamliklarda ham xitoy, koreys va yaponlar singari, milliy mentalitet asosida ajdodlar ruhi poyiga nisbatan izzat-ehtirom ruhida munosabatda bo‘lish, ularni yodda saqlash alohida mas’uliyat ma’nosida tushunilgan.

Vietnamlik nasorolar asosan ikki firqaga bo‘lingan: vet-katoliklar va vet-protestantlar.

Fransuzlar zamonasida qurilgan katolik cherkovlari bus-butun saqlangan va hali-hamon ularning darvozalari dindorlar uchun ochiq. Yana shuni ham qayd etish lozimki, janubiy Vietnamning Mekong havzasida nisbatan yangi diniy sektalar ham faoliyat ko‘rsatgan. Bulardan birinchisi "Kao Day-Ulug‘ saroy", ya’ni dinshunoslikdagi atama bo‘yicha "kaodaizm" Budda, Iso Masih va Konfusiy, ikkinchisi - "Xoaxao-Uyg‘unlik va oljanoblik" esa buddizm, daosizm hamda boshqa diniy ta’limotlarga asoslangan. Vietnamdagi dindorlarning umumiy soni 20 million kishi bo‘lib, ular mamlakat aholisining taxminan uchdan bir qismini tashkil qiladi. Vietnamda eng keng tarqalgan e’tiqod buddizm[1, 6, 8,]. Mazkur xulosaning tasdig‘i sifatida, Ninbin provinsiyasida barpo etilgan mamlakatdagi eng mahobatli Buddha ibodatxonasini misol keltirish mumkin. Bu maskandagi Buddanining uch haykali buddaparastlar nazdida o‘tmish, hozir va kelajakning ramzidir.

Birmadagi diniy e’tiqodlar buddizm tarqalgan mintaqalar tarixida ta’limot asoschisining hayoti va faoliyati haqida juda ko‘p turli rivoyat va voqealar qayd etilgan. Bu diniy e’tiqodning Birmadagi tarixida shunday bir xabar saqlanib qolganki, uning qay darajada haqiqat ekanligi kishini o‘ylantirmay qo‘ymaydi. Tadqiqiy manbalardan olingan ma’lumotlarda berilishicha, "Birmaga Buddha dini uning o‘zi bilan kirib kelib, Mandalay shahrida jonli Buddanining o‘zidan Mahamuni haykali yasab bitirilgach, shundan keyin yuzlab mo‘yjaz tillakor ibodatxonalar qurilishi boshlab yuborilgan ekan"[1, 6, 8,].

Buddizmning birmalik aholi o‘rtasida keng miqyosda qabul qilinishi XI asr ma’naviy hayotida muhim voqeа bo‘lgan. Xususan, Pagan hukmdori Anauratha xuddi Hindistondagi imperator Ashokaga o‘xshab Birmada buddizm hinoyana mazhabining eng yirik targ‘ibotchisi edi.

U o‘zining yangi din xususidagi tashviqotida nainki e’tiqodni, balki buddizm vositasida turli qabilalardan iborat birmaliklarni birlashtirish va madaniyatini yuksaltirish siyosatini ham ko‘zda tutgan. Taxt sohibi shuningdek, o‘z poytaxtini buddizmning markaziga aylantirish maqsadida qo‘shti mamlakatlardan diniy manbalarni keltirib maxsus ibodatxonalarda saqlagan.

Budda ibodatxonalari qurilishida esa, Hindiston va Shri Lankada qad ko‘targan mashhur ibodatxonalar nusxasini bunyod etishga harakat qilingan. Shu yo‘nalishda 1090 yili qad ko‘targan kub shaklidagi Ananda ibodatxonasi Birma me’morchilik san’atining eng yorqin namunalardan biri mavqeini egallagan.

Birmadagi Buddha ibodatxonalarida istiqomat qilgan rohiblarning hind buddaparastlaridan farqli o‘z qonun - qoidalari bo‘lib, ular, masalan, kunning birinchi yarmida taomlanganlar.

Ikkinchi yarmida esa, faqat suv yoxud sharbat ichish bilan qanoatlanganlar. Tunda to‘rt soat uxbab, qolgan vaqtlarini ibodat yo‘lida sarflaganlar. Meditatsiyada ham, ular hindlardan farqli ravishda, faqat ibodatning huzurli lahzalarga moillik uchun emas, balki botiniy ong, nafas, ichki a’zolar va his-tuyg‘ularni nazorat qilish bilan shug‘ullanganlar.

Birmalik rohiblar sadaqa idishlari bilan ko‘cha kezib ro‘zi-nasiba hisobiga yashaganlar.

Odatda ular hech och qolmaganlar, chunki o‘ziga to‘q oilalar doim rohiblarni tegishli

oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlab turganlar[1, 3, 6].. Demak, shunga yarasha sadaqadan tushgan sifatli don - dunlardan totli taomlar tayyorlangan. Bundan tashqari, ibodatxonaga keluvchi taqvodorlar ham doim rohiblar haqqiga sadaqa tashlab ketganlar. Bu xayr sadaqa Birmadagi ibodat maskanlarida quyidagi uslubda ado etilgan. Maxsus sadaqa idishi ibodat qiluvchilardan muayyan uzoqlikda o'rnatilib, ularga sadaqa chaqalari ma'lum masofadan turib irg'itilgan. Ya'ni, agar atalgan pul aniq borib idish ichiga tushsa, go'yo qilingan niyat ham xuddi aniq amalga oshadigandek.

Ayol rohibalar haqida shuni alohida urg'ulash joizki, ularning hayot tarzi o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralgan. Rohibalar ham tilamchilik bilan kun ko'rib, berilgan sadaqalarga duolar o'qish bilan minnatdorchilik bildirganlar. Birmalik ayol rohibalar xuddi erkaklar singari sochlarini qirdirib, boshlariga bir necha qavat qizil ro'mollar o'rab yurganlar. O'zlarini e'tiqodga baxshida qilgan ayollar o'z xohishlari bilan dunyodan umuman turmush qurmay o'tishga rozilik berib taqvoga tushganlar.

Islomning Indoneziyaga kirib kelishi bilan bog'liq tarixiy manbalarda musulmonlarning bu orollar mamlakatiga qilgan harbiy yurishi yoki mahalliy rojaliklarning qachon yangi e'tiqodni qabul qilganliklari haqida biror aniq sanani uchratish qiyin. Bu sohada nisbatan asosli ma'lumotni, faqat musulmon savdogarlarning u yoki bu rivojlangan orol hududiga tashrifi vaqtidan qolgan ma'lumotlardan taxmin qilish mumkin. Shu ma'noda, aytaylik, "Xediri rojaligining Eron va Arab mamlakatlari bilan savdo aloqalari va musulmonlarning Indoneziyadagi faoliyati" yoki xitoylik geograf Chjou Syuyfeyning Kameshvara davlatining kuch-qudrati va savdo imkoniyatlari to'g'risida yozganlari" qisman bo'lsa-da, islomning arxipelagdagi tarixini hujjat sifatida tasdiqlaydi: "Barcha chet ellardagi badavlat mamlakatlar ichida Yavan davlati o'z boyligi bilan Arabistondan keyingi o'rinda turadi..." [4, 5, 8].

Indoneziyada yetishtiriladigan dorivor o'simliklarning barchasi haqida yevropaliklardan ancha oldin arablarni qiziqtirgan edi. Arablar va eroniylardan keyin esa, Hindistonning o'zidan ham musulmon savdogarları Indoneziyaga qatnay boshlaganlar. Ularning aksariyati suv yo'li orqali savdo qilganlar, chunki IX asrdan Kombay Hind okeanida asosiy savdo bardargohiga aylangan edi. Shunday qilib, XI-XII asrlarda Indoneziyaga qatnaydigan savdogarlar asosan musulmonlar bo'lgani uchun, ular o'z tijorat ishlari jarayonida shuningdek, arxipelag orollarida islomni ommalashuviga ham katta hissa qo'shganlar. Bu yerda birinchi bo'lib, Shimoliy Sumatradiagi kichik rojaliklar aholisi va bora-bora musulmon savdogarları bilan munosabatda bo'lgan hokimlar islomga o'tganlar.

Islom, XI-XII asrlardan Indoneziyaning keyingi siyosiy va madaniy hayoti rivojida yetakchi rol o'ynadi. Uning keyingi keng miqyosda tarqalishi arxipelag madaniyatiga yangi-yangi unsurlarni olib kiritish bilan Indoneziyada o'ziga xos uch toifadagi ma'naviyat majmui tarkib topdi: ibridoib indonez madaniyati, so'ng uning hind madaniyati bilan chatishuvi va keyin ular har ikkisining musulmon madaniyati bilan mushtarak shaklga kirishi bilan bog'liq. Diniy jihatdan esa, ayni holat quyidagi shakllarda joriy edi: tub yerlik animistik e'tiqod, undan keyin o'zlashgan hind buddizmi va nihoyat, islom dini.

Uch turli diniy e'tiqodning bir mamlakatda joriy bo'lishi mumkinligi Xitoy tajribasidan, ya'ni konfusiylik, daosizm va buddizm faoliyati tarixidan ma'lum edi. Lekin indonez sarzaminida uch diniy dunyoqarashlar o'rtasida kechgan to'qnashuvlar oqibatida "islom xuddi Hindistondagi kabi indonez milliy qadriyatlari tarkibida o'zlashdi"[4, 8]. Fanda "sinkretizm"[6]. deb nom olgan bunday jarayon, avvalroq Yaponiyada ham buddizm bilan sintoizmnning o'zarobir-biriga singishida namoyon bo'lgandi. Shu kabi Indoneziyada ham yangi ibodat shaklan o'tmish indonez e'tiqodi an'analarida olib borildi.

Masjidlar ham, mahalliy me'moriy uslubga yaqin tarzda qurildi. Yangi e'tiqod muxoliflari esa, hali o'z maqomida barqaror hinduizm va buddizm tarqalgan orollardan panoh topdilar.

Yevropalik - portugallar, niderlandlar, inglizlar va boshqalarning Indoneziya tabiiy boyliklarini o'zlashtirish maqsadidagi urinishlari, shunday ham o'z ichki muammolari bilan band arxepilag xalqlari boshiga ortiqcha tashvish keltirdi. Ya'ni, "XVI asrning o'rtalarida portugallar Moluk hamda Timorda xristianlik e'tiqodini targ'ib qilishga kirishib, yangi diniy masalalarda yerlik xalqlar orasida o'zaro nizo keltirib chiqarishga urindilar" [3, 6, 8]. Ushbu holat - yevropacha madaniyat indonez milliy qadriyatlari an'analariga deyarli begonaligicha qolgan bo'lsa, musulmon unsurlari esa, ba'zi o'zgarishlar bilan mahalliy ma'naviyat tarkibining asosiy qismiga aylandi.

**Xulosa.** Diniy e'tiqoddan meros qolgan talay an'analar hozir ham o'z mohiyatini yo'qotmagan. Birmaliklar doim bo'sh vaqtlarida stupalarga kelib toat-ibodat bilan mashg'ul bo'ladilar. Odatta "stupa"lar tepaliklarga qurilgan bo'lgani uchun ziyoratchilar uning to'rt tomonidan yuzlab zinalar orqali manzilga chiqadilar. Ibodatxonaga tashrif buyurganlar poyafzallarini yechishlari shart, chunki Buddha dargohida, ta'lilotning ilk davri talablariga muvofiq shaxsiy gigiyena masalalariga alohida e'tibor berilganligi bois, hozirda ham tozalikka juda jiddiy amal qilinadi. Bu yerda agar ba'zilar meditatsiya bilan band bo'lsalar, boshqalar "niyatlar amalga oshadigan maxsus joy"ga kelib ibodat qiladilar.

Xulosa qilib aytganda, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlaridagi e'tiqodiy ma'naviy hayot tarixi masalasida shuni alohida ta'kidlash joizki, ushbu mintaqqa aholisi tarkiban asl yerlik, indonez, malay va xitoy kabi millatlar hamda mustabid ispanlardan iborat bo'lganligi uchun madaniyat sharq va g'arb an'analar bilan mushtarak tarzda rivojlangan. Ammo, aholining 90 foizi xristian dini ma'naviyatiga doxil bo'lganligi bois, bu jarayon, har qalay, ko'proq Yevropa madaniyati ta'siri ostida kechganligini ko'rish mumkin.

## REFERENCES

1. Всемирная история. Т.3. М.1955.
2. История древнего мира. Ранняя древность. Гл.изд.вост.лит. М.1983.
3. Васильев Л.С. История религии Востока.Т.1. М.1998.
4. Васильев Л.С. История религии Востока. М.2000.
5. Жаҳон мамлакатлари. Қисқа маълумотнома. Т. 2006.
6. Низомиддинов Н.Ғ. Жанубий-Шарқий Осиё диний-фалсафий таълимотлари ва ислом. Т. 2006.
7. Жабборов И. Жаҳон этнологияси асослари. Т. 2008.
8. Низомиддинов Н.Ғ. Жанубий,Жануби-Шарқий ва Шарқий Осиё халқлари қадимги тарихи, диний эътиқоди, маданияти.(Хрестоматия).
9. 10. Т. 2010.
11. Rajabov, O. (2024). XOJA UBBON IBN USMON IBN AFFON ZIYORATGOHI. *Modern Science and Research*, 3(10), 1-5.
12. Shokirova, F., & Rajabov, O. (2024). TURK XOQONLIGI DAVRIDA MAHALLIY BOSHQARUV MASALALARI. *Modern Science and Research*, 3(5), 1166-1170.
13. Iskandarovich, R. O. (2022). Historical Architectural Complex of the Chor (Pers. Four) Bakr Ensemble.

15. Rajabov, O. (2020). Qizbibi va Hazrat Bibi manzilgohlari muqaddas qadamjo sifatida. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).
16. Rajabov, O. I. (2024). FEMALE SAINTS AND HOLY PLACES IN BUKHARA. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(6), 18-22.
17. Umarov, B. B. (2024). VIII-X ASRLARDA BUXORO SHAHRI TARIXIY TOPOGRAFIYASI (SHAHRISTON MISOLIDA). «Ёш олимлар ахборотномаси»—«Вестник молодых ученых», (Спецвыпуск), 103-108.
18. Umarov, B. (2023). ABU BAKR NARSHAXIY ASARIDA BUXORO SHAHRI TAVSIFI. *Scientific journal of the Fergana State University*, (2), 166-166.
19. Bakhtishod, U. (2024). CONSTRUCTIVE ACTIVITIES TO THE SAMANID RULERS. *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(5), 169-172.
20. Умаров, Б. Б. (2021). НА КИСЛЯКОВ-ПОПУЛЯРИЗАТОР МУЗЕЕВ И ИСТОРИИ ТАДЖИКСКОГО НАРОДА. *Экономика и социум*, (11-2 (90)), 495-497.